


NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul*)

Navoiy viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3316,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,7 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 450,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 88,5 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2865,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 491,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9 %ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)



*-dastlabki ma'lumotlar

**Chakana savdo tovar aylanmasining
o'sish sur'atlari**

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Navbahor tumani, Karmana tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


	Jami (mlrd. so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	3316,3	450,4	13,6	2865,9	86,4
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	1197,5	427,3	35,7	770,2	64,3
Zarafshon shahar	268,7	4,8	1,8	263,9	98,2
Karmana tuman	506,4	1,4	0,3	504,9	99,7
Konimex tuman	87,2	0,5	0,6	86,7	99,4
Qiziltepa tuman	393,3	5,4	1,4	387,9	98,6

Navbahor tuman	195,0	0,5	0,3	194,5	99,7
Nurota tuman	129,2	1,6	1,2	127,6	98,8
Tomdi tuman	23,8	0,1	0,6	23,7	99,4
Uchquduq tuman	160,1	0,4	0,2	159,7	99,8
Xatirchi tuman	355,1	8,3	2,3	346,8	97,7

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,5 %ga o'sdi va 450,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 2865,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,9 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,4 %ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi**



Joriy yilning yanvar-iyul oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Uchququq (99,8%), Navbahor (99,7%), Karmana (99,7%), Konimex (99,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,6 %ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (35,7 %) va Xatirchi tumanida (2,3 %) kuzatilgan.

**Mulkchilik shakli bo`yicha
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so`m)**


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	3316,3	3288,9	27,4
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	1197,5	1170,2	27,3
Zarafshon shahar	268,7	268,7	-
Karmana tuman	506,4	506,3	0,1
Konimex tuman	87,3	87,3	-
Qiziltepa tuman	393,3	393,3	-
Navbahor tuman	195,0	195,0	-
Nurota tuman	129,2	129,2	-
Tomdi tuman	23,8	23,8	-
Uchquduq tuman	160,1	160,1	-
Xatirchi tuman	355,1	355,1	-

Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi

2018 yil yanvar-iyul



2019 yil yanvar-iyul




Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-iyul oylarida 3288,9 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,6 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-iyul oylarida 27,4 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,6 foizga ko'paydi.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (36,1 foiz), Karmana tumani (15,3 foiz), Qiziltepa tumani (11,9 foiz), Xatirchi tumani (10,7 foiz), va Zarafshon shahri (8,1 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida
viloyat hududlarining ulushi



Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7 %ni tashkil etib, 88,1 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi, (mlrd.so`m)



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 8,7 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 %ga ko`paygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 79,4 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 4,5 %) tashkil etdi.

Viloyatda yirik umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`sish sur`ati, % da	Shundan		
			Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`sish sur`ati, % da	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	88,1	104,2	8,7	101,9	9,9
<i>shaharlar</i>					
Navoiy shahar	37,4	104,3	8,6	102,1	23,2
Zarafshon shahar	10,5	104,9	-	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana tuman	14,9	104,5	0,1	82,3	0,4
Konimex tuman	1,8	103,5	-	-	-
Qiziltepa tuman	7,5	103,9	-	-	-
Navbahor tuman	2,8	103,0	-	-	-
Nurota tuman	2,1	103,6	-	-	-
Tomdi tuman	0,9	104,5	-	-	-
Uchquduq tuman	3,5	104,1	-	-	-
Xatirchi tuman	6,7	103,4	-	-	-

**Viloyatda kichik umumiy ovqatlanish korxonalarining
tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O'sish sur'ati, %da	Shundan		
			Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O'sish sur'ati, %da	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	88,1	104,2	79,4	104,5	90,1
<i>shaharlar</i>					
Navoiy shahar	37,4	104,3	28,7	104,9	76,8
Zarafshon shahar	10,5	104,9	10,5	104,8	100,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana tuman	14,9	104,5	14,8	104,6	99,6
Konimex tuman	1,8	103,5	1,8	103,1	100,0
Qiziltepa tuman	7,5	103,9	7,5	104,0	100,0
Navbahor tuman	2,8	103,0	2,8	103,4	100,0
Nurota tuman	2,1	103,6	2,1	103,3	100,0
Tomdi tuman	0,9	104,5	0,9	104,5	100,0
Uchquduq tuman	3,5	104,1	3,5	103,7	100,0
Xatirchi tuman	6,7	103,4	6,7	103,6	100,0


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahrini, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumanini misol keltirishimiz mumkin.

**Mulkchilik shakli bo'yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	88,1	79,5	8,6
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	37,4	28,9	8,5
Zarafshon shahar	10,5	10,5	-
Karmana tuman	14,9	14,8	0,1
Konimex tuman	1,8	1,8	-
Qiziltepa tuman	7,5	7,5	-
Navbahor tuman	2,8	2,8	-
Nurota tuman	2,1	2,1	-
Tomdi tuman	0,9	0,9	-
Uchquduq tuman	3,5	3,5	-
Xatirchi tuman	6,7	6,7	-

**Navoiy viloyatida mulkchilik
shakli bo'yicha ovqatlanish
korxonalari savdo aylanmasi ulushi**

2018 yil yanvar-iyul



2019 yil yanvar-iyul



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-iyul oylarida 79,5 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 6,7 foizga kamaydi.


Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-iyul oylarida 8,6 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 6,7 foizga ko'paydi.

NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)*

2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1339,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 8,0 foizga oshdi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)



- | | |
|-------------|----------------|
| ■ Navoiy sh | ■ Zarafshon sh |
| ■ Karmana | ■ Kenimex |
| ■ Qiziltepa | ■ Navbahor |
| ■ Nurota | ■ Tomdi |
| ■ Uchquduq | ■ Xatirchi |


*-dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, 767,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,0 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,3 %ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi esa 42,7 %ni tashkil etdi.

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Karmana tumani, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumani, Zarafshon shahrida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Tomdi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 952,6 mlrd. so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,1 %ni tashkil qiladi.)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning hajmi


	Jami (mlrd.so`m)	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	1339,6	572,6	42,7	767,0	57,3
Navoiy shahar	952,6	186,2	19,5	766,4	80,5
Zarafshon shahar	30,5	30,5	100,0	-	-
Karmana tuman	209,6	209,6	100,0	-	-
Konimex tuman	6,2	6,2	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	39,6	39,6	100,0	-	-
Navbahor tuman	43,5	43,5	100,0	-	-
Nurota tuman	4,5	4,5	100,0	-	-
Tomdi tuman	1,2	1,2	100,0	-	-
Uchquduq tuman	7,7	7,7	100,0	-	-
Xatirchi tuman	44,2	43,6	98,7	0,6	1,3

Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	1339,6	1339,0	0,6
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	952,6	952,6	-
Zarafshon shahar	30,5	30,5	-
Karmana tuman	209,6	209,0	0,6
Konimex tuman	6,2	6,2	-
Qiziltepa tuman	39,6	39,6	-
Navbahor tuman	43,5	43,5	-
Nurota tuman	4,5	4,5	-
Tomdi tuman	1,2	1,2	-
Uchquduq tuman	7,7	7,7	-
Xatirchi tuman	44,2	44,2	-

Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo
tovar aylanmasi ulushi

2018 yil yanvar-iyul




2019 yil yanvar- iyul



Yuqoridagi solishtirma ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-iyul oylarida 1339,0 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,005 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-iyul oylarida 0,6 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,005 foizga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (71,1 foiz), Karmana tumani (15,6 foiz) va Xatirchi tumani (3,3 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36